

G‘O‘ZA NAV-NAMUNALARINING MORFO-XO‘JALIK KO‘RSATKICHLARI

Namozov Zuxriddin Abdikarimovich, mustaqil-tadqiqotchi,
ORCID: 0009-0009-4328-3286

Narimanov Abduljalil Abdusamatovich, q/x.f.d. professor
ORCID: 0000-0001-5632-4088

Xakimov Abdumurod Esirgap o‘g‘li, kichik ilmiy xodim
ORCID: 0009-0009-3111-0361

Madartov Bahrom Kuvandikovich, q/x.f.d. professor
ORCID: 0009-0001-6877-2352

Genetika va O‘simliklar Eksperimental Biologiyasi instituti.

Annotatsiya. Ushbu ishda g‘o‘za nav-namunalarining morfo-xo‘jalik xususiyatlari tahlil qilindi. Mag‘rur navining yuqori hosil salohiyati, shoxlanish tiplari I va II, konussimon shakli va bosh poya balandligi 113,10 sm bilan ajralib turadi. Iftixor -2 va Gulshan navlari ham samarali, ammo Mag‘rur dan biroz pastroq. L-6, L-36, va L-38 navlari o‘rtacha hosil berish imkoniyatini yaratadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Mag‘rur, L-6, va Iftixor -2 navlari yuqori hosil olish uchun eng yaxshi tanlovlardir.

Kalit so‘zlar: g‘o‘za, morfo-xo‘jalik xususiyatlari, bosh poya balandligi, xosil shoxlari, hosil salohiyati, navlar.

Аннотация. В данной работе были проанализированы морфо-хозяйственные характеристики сортов хлопка. Сорт Маг‘рур выделяется высоким потенциалом урожайности, типами разветвлений I и II, конусообразной формой и высотой главного стебля 113,10 см. Сорта Ифтихор -2 и Гулшан также обладают хорошей продуктивностью, но немного уступают Маг‘рур по некоторым показателям. Сорта Л-6, Л-36 и Л-38 обеспечивают среднюю урожайность. Результаты показывают, что сорта Маг‘рур, Л-6 и Ифтихор -2 являются лучшими выборами для получения высокого урожая.

Ключевые слова: хлопок, морфо-хозяйственные характеристики, типы разветвлений, высота главного стебля, плодоносные ветви, потенциал урожайности, сорта.

Abstract. This study analyzed the morpho-agronomic characteristics of cotton varieties. The Mag‘rur variety stands out with high yield potential, I and II branching types, conical shape, and a main stem height of 113.10 cm. Iftixor -2 and Gulshan also show good productivity, but are slightly lower than Mag‘rur in some indicators. L-6, L-36, and L-38 provide average yield potential. The results show that Mag‘rur, L-6, and Iftixor -2 are the best choices for high yield production.

Keywords: cotton, morpho-agronomic characteristics, branching types, main stem height, fruiting branches, yield potential, varieties.

G‘o‘za o‘simliklari asosan tropik va subtropik iqlim sharoitlarida o‘sadi. Paxta tolalari esa eng muhim xom ashyo sifatida to‘qimachilik, kiyim-kechak, uy-ro‘zg‘or buyumlari ishlab chiqarish va boshqa ko‘plab sohalarida ishlatiladi. Paxta, shuningdek, iqtisodiy jihatdan muhim ekin hisoblanadi, chunki u ko‘plab mamlakatlarda millionlab odamlar uchun ish o‘rni yaratadi. G‘o‘za hosilidan olingan paxta tolasining yuqori sifati va samarali ishlab chiqarish texnologiyalari unga bo‘lgan talabni oshiradi. G‘o‘za ekinlarini yetishtirishda iqlim, tuproq va suv ta‘minoti kabi omillar muhim rol o‘ynaydi. G‘o‘za o‘sishi uchun iliq va quyoshli ob-havo sharoitlari kerak bo‘ladi. Bu ekin uchun tuproq yaxshi drenajlangan, unumdor va o‘rta darajadagi namlikka ega bo‘lishi zarur. Shuningdek, g‘o‘za sanoati ekologik muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu jarayonda pestitsidlar, o‘g‘itlar va boshqa kimyoviy moddalar ishlatiladi, shuning uchun barqaror qishloq xo‘jaligi va ekologik xavfsiz texnologiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O‘simlik balandligi vegetatsiya davrida o‘simliklarning o‘sish dinamikasini kuzatish uchun qulay obyekt. Bu xususiyat yillar davomida juda katta farq qiladi, bu esa genotiplarning atrof-muhit sharoitlarining keskin o‘zgarishiga turli xil sezgirligini ko‘rsatadi. O‘simliklarning o‘sishi organizmning irsiyatiga va atrof-muhitning biotik va abiotik omillariga bog‘liq. O‘sish sur‘atlari meteorologik

sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq. O‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishining fenologik fazalarini ro‘yxatga olish orqali turli omillar va yetishtirish usullarining o‘simlik ontogenezi va don hosil bo‘lishiga ta‘sirini aniqlash imkonini beradi [1, 2].

Olingan ma‘lumotlar asosida, g‘o‘za navlari tez pisharligi ulardagi morfo-biologik va qishloq-xo‘jalik belgilari bilan uzviy bog‘liqligi aniqlangan. Nav qancha tez pishar (vegetatsiya davri qisqa) bo‘lsa, ularda hs pastdagi bo‘g‘inlarda hosil bo‘lib, unda bir ko‘sakdagi paxtaning og‘irligi va 1000 dona chigit vazni ham nisbatan yengilroq bo‘lishi kuzatilgan [3].

O‘rta tolali g‘o‘za shakllari tez pishar introgressiv liniyalar bilan chatishtirilganda, F1 retsirok duragaylari ota- ona g‘o‘za shakllarga nisbatan tez pisharlik belgisining o‘zgaruvchanlik ko‘lami boshlang‘ich introgressiv liniyalar bilan bir xil holatda bo‘lgan [4].

Materiallar va uslublar. Olib borilgan tadqiqotimizda g‘o‘zaning nav-namunalirining morfo-xo‘jalik va qimmatli xo‘jalik belgilari ko‘rsatkichlari o‘rganildi.

O‘ZR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutining “Do‘rmon” tajriba stansiyasining tipik tusli bo‘z tuproqlari, O‘ta tolala g‘o‘za navlari tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tajriba tahlillar qishloq xo‘jalik ekinlari navlarini sinash davlat komissiyasining uslubi asosida olib borildi.

G'o'za nav-namunalarining morfo-xo'jalik ko'rsatkichlarining tahlili

	Nav va tizmalar	Hosil shoxlarining shoxlanish tiplari	O'simlik shakli	Bosh poya balandligi, sm	Hosil shoxlari soni, dona
1	Iftixor -2	I ba II	konussimon	108,70±3,40	14,20±0,34
2	Sadaf	II	konussimon	96,50±3,27	13,66±0,23
3	Gulshan	II	konussimon	110,70±4,40	13,93±0,49
4	Mag'rur	I ba II	konussimon	113,10±4,51	14,47±0,43
5	Iqbol	I ba II	konussimon	105,40±3,62	13,51±0,43
6	L-36	I ba II	konussimon	103,70±3,70	14,06±0,32
7	L-38	I ba II	konussimon	105,30±4,68	13,93±0,31
8	L-6	I	Silindirsimon	118,70±2,82	15,48±0,29

Natijalar va munozara. Iftixor-2 navining shoxlanish tiplari I va II bo'lib, o'simlik shakli konussimon. Bosh poya balandligi 108,70 sm, hosil shoxlari soni esa 14,20 dona. Bu ko'rsatkichlar navning yaxshi hosil berish imkoniyatini ko'rsatadi. (1-jadval)

Sadaf navining faqat II shoxlanish tipi mavjud. Bosh poya balandligi 96,50 sm va hosil shoxlari soni 13,66 dona. Bu navning hosil berish darajasi o'rtacha.

Gulshan navining shoxlanish tiplari II va o'simlik shakli konussimon. Bosh poya balandligi 110,70 sm, hosil shoxlari soni esa 13,93 dona. Bu nav samaradorlikni ta'minlaydi.

Mag'rur navining shoxlanish tiplari I va II, o'simlik shakli konussimon. Bosh poya balandligi 113,10 sm, hosil shoxlari soni esa 14,47 dona. Bu nav yuqori hosil berish imkoniyatiga ega. Shoxlanish tiplari va yuqori poya balandligi hosilning samarali rivojlanishiga yordam beradi.

Iqbol navining shoxlanish tiplari I va II bo'lib, bosh poya balandligi 105,40 sm, hosil shoxlari soni esa 13,51 dona. Bu nav o'rtacha hosil berish imkoniyatini ko'rsatadi.

L-36 navining shoxlanish tiplari I va II, bosh poya balandligi 103,70 sm va hosil shoxlari soni 14,06 dona. Bu nav yuqori hosil olish uchun yaxshi imkoniyatlarni ta'minlaydi.

L-38 navining shoxlanish tiplari I va II bo'lib, bosh poya balandligi 105,30 sm, hosil shoxlari soni esa 13,93 dona. Bu navning hosil olish imkoniyatlari yuqori.

L-6 navining silindirsimon shakli va shoxlanish tipi I bo'lib, bosh poya balandligi 118,70 sm va hosil shoxlari soni 15,48 dona. Bu nav juda yaxshi hosil berish imkoniyatiga ega.

Tahlil qilingan g'o'za nav-namunalari o'zining morfo-xo'jalik xususiyatlari bilan har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Navlarning o'sish tiplari, bosh poya balandligi va hosil shoxlari soni o'simliklarning hosil berish salohiyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Mag'rur navining shoxlanish tiplari I va II, konussimon o'sish shakli, bosh poya balandligi 113,10 sm va hosil shoxlari soni 14,47 dona bo'lib, bu nav yuqori hosil olish imkoniyatiga ega. Iftixor -2 va Gulshan navlari ham samarali hosil berishga ega, ammo ular Mag'rur navidan biroz pastroq. Sadaf va Iqbol navlari o'rtacha hosil berish salohiyatiga ega bo'lsa-da, ularning poya balandligi va shoxlari soni boshqa navlarga qaraganda pastroq. L-36 va L-38 navlari o'rtacha poya balandligi va hosil shoxlari soni bilan yaxshi hosil olish imkoniyatini ta'minlaydi. L-6 navining silindirsimon shakli va yuqori poya balandligi (118,70 sm) unga yuqori hosil olish imkoniyatini yaratadi.

Umuman olganda, Mag'rur, L-6, va Iftixor -2 navlari eng yuqori hosil berish salohiyatiga ega. Mag'rur navining yuqori poya balandligi, shoxlanish tiplari va hosil shoxlari soni uni o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchan va samarali ekin sifatida ajratib turadi.

ADABIYOTLAR:

1. Камовская Т. М. Продуктивность суданской травы в условиях Брянской области // Молодые ученые аграрной науке и производству: сборник научных работ молодых ученых-аграр. Центрального федерального округа. Вып. 1. Брянск: Изд-во Брянской ГСХА, 2003. С. 27-28.

2. Xu Wang, Daljit Singh, Sandeep Marla, Geoffrey Morris & Jesse Poland «Field-based high-throughput phenotyping of plant height in sorghum using different sensing technologies» Plant Methods volume 14, Article number: 53 (2018) Published: 04 July 2018)

3. Jumayev F.X., Abzalov M.F., Orazboyeva G, Xolov Yo. G.hirsutum L.ga mansub navlarida duragay bo'g'inlarida tez pisharlikni genotipga bog'liqligi. // "G'o'za va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarida tezpisharlikni hamda moslashuvchanlikni evolyusion va seleksion qirralari" nomli xalqaro ilmiy konferensiya materiallari akademik S.S.Sodiqov tavalludining 95-yilligiga bag'ishlanadi. FAN. T. 2005, – B.37–40.

4. Kushshayev K.D., Krilova L.G, Djumashev M.M. Izmenchivost priznaka skorospelosti pri skreshivani introgressivnix liniy s sortami xlochatnika. // "G'o'za va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarida tezpisharlikni hamda moslashuvchanlikni evolyusion va seleksion qirralari" nomli xalqaro ilmiy konferensiya materiallari akademik S.S.Sodiqov tavalludining 95-yilligiga bag'ishlanadi. T.2005, – S.48–50.